

**“OSHIQNOMA” TURKUMIDAN “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI
XUSUSIDA**

*Urganch davlat universiteti talabasi
Madaminova Dilnura Bahodir qizi*

Annotatsiya: “Oshiqnoma” dostonlari Xorazm dostonlaridan tashkil topgan. Bu dostonlarda qadimiy Xorazm xalqiga xos an’ana va madaniyatni ko‘ramiz. Ushbu maqolada “Oshiqnoma” majmualarining 3-kitobi, “Oshiqnoma” turkumidagi “Layli va Majnun” dostoni obrazlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Foklor, Layli, Majnun, Zayd, Qays, Navfal, Zayd.

Folklor xalq badiiy madaniyatining asosi va tarkibiy qismidir. U ma’naviyatning tarixiy asoslari va zamini bo‘lishi bilan birga uning bugungi holatini yanada boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbai hamdir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat yetukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma’naviy dunyosi boyligini ta’minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folkloarning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Dostonlar tildan tilga og‘zaki va yozma tarzda sayqallanib yetib keldi. Tadqiqot manbaimiz “Oshiqnoma” rukni ostida 3-kitobga “Yusuf va Ahmad”, “Layli va Majnun”, “Gul va Sanobar” dostonlarining qo‘lyozma nusxalari hamda “Hurliqo va Hamro” dostonining og‘zaki variant kiritilgan. Quyida “Layli va Majnun” dostonini tahlil qilamiz. Jumladan, dostondagi obrazlarning kelib chiqishi, qanday ma’no anglatishi ham tahlil qilingan. Dostonlarda qo’llanilgan badiiy obrazlarning nomlari, xususan, bosh qahramonlar nomlari xalq orasida juda keng tarqalgan. Shu sababdan ham ularning ko‘pchiligi tarixiy shaxslar kabi tilga olinadi. Shu maqsadda biz “Layli va Majnun” dostonini tahlil qilishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

1. Xurshid kabi qobil-u komil,
Iso kabi tifllikda shomil,
Shod o‘ldi o‘g‘il yuzidin ota-on,
Shukronag‘a berdi chu pisari farzona.

Ushbu Iso ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism yahudiycha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Allohning tuhfasi, ehsoni, lutf-u karami; Allohning ko‘magi va yaqini. Iso - qadimiy yahudiycha Jexogua, lisus (xristos) nomining arabcha shaklidir. Xurshid ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism fors-tojikcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Quyosh (oftob); g‘oyat go‘zal yohud jozibali, iqboli baland bola.

2. “Alqissa, La’lixon oyim boshig‘a tushg‘an savdolarni bayon qildi...”

Ushbu La’lixon ismi asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, la’l so‘ziga -xon qo‘shimchasi qo‘shilgan.

3. Man so‘ra bilmadim yorim xabari,

Na bo‘ldi bilmadim kelmadi Layli.

4. Alar borib Laylini otosig‘a bo‘lg‘on voqeani bayon qildilar.

Ushbu Layli ismi asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: savsangul, oqshom gulidek barno, go‘zal, nafis qiz yoki tun go‘zali, tungi yog‘du. Tunda tug‘ilgan qiz yoki nilufar (savsan) dek go‘zal, chiroyli qiz.

5. Sog‘mudur ko‘zlarining nechuk bog‘liqdur,

Xush kelding Majnunim, sabo kelibsani.

Ushbu Majnun ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: telba, devona, aqlidan ozgan; muhabbat gadosi. “Layli va Majnun“ dostonining bosh qahramoni - Majnun nomidan olingan ism

6. Zayd Laylini qarindoshi erdi. Bu Layli birlan Qaysni hollaridan xabardor ardi.

Ushbu Zayd ismi asosan o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: tuhfa, in’om yoki ko‘payish, qo‘shilish.

7. Andin so‘ng Qays ko‘nglida xavotir birlan mullani bergen saboqini ham bilmadi.

Majnunning asl nomi. Ma’nosи noma’lum. Eht.: Qays - o‘lchov, miqdor.

8. Aning otig'a Layli der erdilar. Qays birlan avvaldin ulfat bo'lg'on erdi. Shuning uchun to o'lguncha muhabbatlari kun-kundin ziyoda bo'lur erdi. Har kimarsa Qays desa, Layli javob berur erdi.

9. Alqissa Qays bu so'zni tamom qilg'ondin so'ng bularni Zayd degan xalfasi

bor erdi. Ul ham Zaynab degan bir qiz birlan muhabbatg'a ko'ngil bergen erdi. Zayd Laylini qarindoshi erdi.

10. Roviy aytur: Ibn Salom otlig' bir bekzoda bor erdi. Shikorg'a chiqib borur erdi. Nogoh ul qizlarg'a duchor bo'ldi. Ammo alarni orasida Laylig'a giriftor bo'ldi.

Ushbu Salom ismi asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: tinchlik, sog'lik, omonlik.

11. Unga Navfal der erdilar. Lekin bahodirliqda mashhur erdi. Yonidin qirq yigitni ayirmas erdi.

Ushbu Navfal ismi asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: tortiq, sovg'a, ehson.

12. Nogoh oldig'a Zayd xalfasi chiqdi. Ko'rsa Laylini ko'zi yosh, bag'ri bir yon bo'lub kelur erdi. Ammo Zayd ham ul kun Majnunni yonig'a borib, bir kecha aning birla hamroh bo'lub kelmish erdi.

13. Xo'blar ichinda bir xush donosan ollo hay, hay,

Yozu-qish ochilg'on ra'nosan ollo hay,hay.

Boshdin oyog'i zebo ra'nosan ollo hay,hay,

Bir Yusufi zamona mirzosan ollo, hay,hay.

Na bo'lg'ay o'z qo'lingda bersang mango piyola.

Yusuf - qadimiy yahudiycha nom, Iosifning (Ya'qub payg'ambar o'g'li) arabcha shakli. Ma'nosi: o'sgan, ko'paygan. Yusuf nomi Sharqda go'zallik, xushro'ylik timoslidir.

14. Voh darig'a bo'lmadi kam lahma ushbu g'amim,

Ul sabab mandin judo bo'ldi asir ul hamdamim.

Oysha ham Fotma sheri xudo ul mahramim

Anda man nozanin xo'bondin ayrilmisham.

Ushbu Fotima ismi asosan qiz bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: Aynan: fatiat - ko'krakdan ajratilgan. Bu nom Muhammad (sallolohu alayhi vassalam)ning kenja qizlarining ismi bo'lган. Egizak qizlar tug'ilganda kattasini Fotima deb nomlash millatimizda урға аяланган. Ushbu Oysha ismi asosan qiz bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: Yashovchi, barhayot, joni toshdek mustahkam, umri uzoq, hayoti nurli qiz. Bu ism Muhammad (sallolohu alayhi vasallam)ning ayolları Oysha (r.a.) ismlari bo'lган.

15. Sarvinozim erdi lola birla hamrohdin fuzun,

Ham binafsha sunbulu ra'no zebolardin fuzun.

Qays der furqat aro Majnun voladin fuzun,

Ruh masihalikda erdi ul duraxshondin fuzun.

Husnaro chun Yusufi Kan'ondirin ayrilmisham.

Ushbu Sarvinoz ismi asosan qiz bolalarga qo'yiladi va bu ism fors-tojikcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: tik qomatli, bo'y-basti kelishgan, sarv daraxtidek kelishgan va nozik qiz.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlari har bir millatning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, ularda o'sha millatning asrlar osha sayqallahib kelgan boy lisoniy merosi o'z mujassamini topadi. Dostonlardagi obrazlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular voqealar silsilasi bilan turli etnografik, tarixiy tamoyillarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu obrazlar orqali doston syujetini bilan bog'liq davr, xalqlarning урф-одатлари, yashash tarzini ham bilib olishimiz mumkin. Ayrim

hollarda doston qahramonlarini mukammalroq ta'riflash maqsadida tarixiy shaxslar nomlari, taxallus va laqablari keltiriladiki, ular hudud bilan bog'liq voqealarni anglatishda muhim rol o'yndaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipov O. Xorazmnoma. Qadimgi Xorazm. Urganch: "Xorazm". 2005.
2. Ruzimboyev S. Xorazm dostonchiligi epik an'analari. Urganch, "Universitet", 2008.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Xorazm dostonlari. Oshiqnoma, 3-kitob. "Xorazm" nashriyoti, 2008.